



ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

О‘QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Radjapov U.R.

Nizomiy nomidagi TDPU “Jismoniy tarbiya va sport kafedrası” professori

Xakimdjanova K.

o‘qituvchisi

Sabirov S.A.

Osh davlat universiteti “Sport va milliy o‘yinlar kafedrası” katta o‘qituvchisi

Omarov T.

professor

Tayanch so‘zlar: oliy ta‘lim, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy axborot kommunikatsiya, AKT, Wi-Fi zona, IT park kompetensiya, pedagogik innovatsiya, innovatsion yondashuv.

Ключевые слова: высшее образование, педагогические технологии, современные информационные коммуникации, ИКТ, зона Wi-Fi, компетенция IT-парка, педагогические инновации, инновационный подход.

Key words: higher education, pedagogical technologies, modern information communication, ICT, Wi-Fi zone, IT park competence, pedagogical innovation, innovative approach.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish chora-tadbirlarida “mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta‘lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati monitoringini yuritish” [1] kabi vazifalar belgilangan.

Zamonaviy ta‘lim muhitidagi raqamli kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilarni soha faoliyatga tayyorlash mexanizmlari, vositalari, texnologiyalarini ishlab chiqish muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘z navbatida ushbu faoliyat sohasida raqamli kompetentligi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash mohiyatini ilmiy jihatdan anglash zarurligini bildiradi. “Raqamli” atamasi kelib chiqishiga ko‘ra lotin va ingliz tillariga taalluqli holda



“digital“ soʻzidan olingan va “raqamlardagi maʼlumotlar, signal”, “qadam-baqadam” [2] maʼnolarida ketma-ketlikni bildiruvchi sifat darajasini anglatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 5 oktabrdagi “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6079 son Farmonining “Axborot texnologiyalari sohasida taʼlim berish va malaka oshirish yoʻnalishi” bobida “raqamli koʻnikmalarga ega boʻlgan aholi ulushuni oshirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida bepul onlayn kurslar tashkil etish” vazifasi qoʻyilgan [3]

Raqamli kompetensiyalar tushunchasi faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida inson (fuqaro, ishchi, talaba) ning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan har xil sharoitlarda (ish, boʻsh vaqt, mashgʻulot) foydalanish qobiliyatining oʻziga xos xususiyati sifatida tavsiflanadi. Yana boshqa xorijiy manbalarda raqamli kompetensiya bu ish, taʼlim, boʻsh vaqt, jamiyatda ishtirok etish bilan bogʻliq maqsadlarga erishish uchun AKTdan ishonchli, tanqidiy va ijodiy foydalanish, deb taʼriflanadi.

Bugungi kunda raqamli kompetensiyasiga ega boʻlgan mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat taʼlim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qoʻyilgan vazifaga faqatgina AKT kompetensiyasini multimediali taʼlim texnologiyalari asosida oʻqitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin, bunda taʼlim oluvchiga yangi bilimlarni tushunishga, ulardan dars mashgʻulotlarida moxirona foydalanish asnosida yangilik yaratishi va yaratilgan yangi metodikalarini amaliyotga samarali tadbiiq etishiga imkon berilishi lozim.

Aynan shuning uchun ham hozirgi zamonaviy taʼlimning raqamlashtirish davrida oliy taʼlim tashkilot tizimini talabalarining interaktiv texnologiya va multimedia vositalari yordamida ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish zamonaviy taʼlimning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda.

Olimlar Ye.Ye.Sherbik, A.A.Kondakova taʼkidlashicha raqamli kompetensiyalarning shakllanishini baholashda uchta darajani aniqlash mumkin: – yuqori. Raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan toʻliq foydalanish qobiliyati (shu jumladan raqamli mahsulotni yaratish) bilan tavsiflanadi; – oʻrta. Bu barcha raqamli kompetensiyalarning mavjudligini bilish, ammo ularni faqat qisman qoʻllash sifatida tavsiflanishi mumkin; – past. Raqamli komponentlar haqidagi bilimlarning mavjudligidan farq qiladi, bilimni tarkibiy qismlarini kasbiy vazifalar bilan oʻzaro bogʻlash mumkin emas.

Shuning uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun nafaqat fanlar aro bogʻlanishlardan foydalanish, balki oʻrganilayotgan fanlarga individual



interfaol metodlardan foydalangan holda zamonaviy dars olib borish metodlarini ham kiritish kerak. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, raqamli kompetensiya hayotning barcha sohalarida axborot jamiyati texnologiyalaridan ishonchli va tanqidiy foydalanishni nazarda tutadi [5].

Ta'lim tizimining hozirgi holatida raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni katta ahamiyatga ega. O'quvchining raqamli texnologiyalar bilan bilimlarni o'zlashtirishi an'anaviy texnologiyalarga qaraganda bir muncha tezroq amalga oshadi.

Raqamli texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Demak, oldimizga quyidagi savolni qo'yaylik, Raqamli texnologiya - o'zi nima? Raqamli texnologiya bu – xo'jalik yuritishning zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D - texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Biz esa, ta'lim tizimida raqamlashtirishga to'xtalib o'tamiz. Ta'limda ham boshqa sohalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida ta'lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini kompyuter, noutbuk, multimediyalar, kodoskop, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.

Pedagog hodimlarni bunday vositalar bilan ta'lim jarayonlarini tashkil qilishi ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda, konferensiyalarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi barchaga ma'lum.

Demak, raqamli ta'limning afzalliklari xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega, internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi, ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi, raqamli dunyoda yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lishligi kabilardir.



Prezidentimiz farmoni bilan Wi-Fi zonalar, IT parklar ochilishi raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga katta xizmat qiladi. Ta'lim sohasida VR (virtual haqiqat) o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR (virtual haqiqat) dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi. Tahlil (kuzatish) natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, olib borilgan tadqiqotlar, asosan, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini, innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash va darsdan tashqari o'quv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik ta'minotni takomillashtirishda zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarning iqtidori, qobiliyati va qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasini atroflicha tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib ta'limni axborotlashtirish bugungi rivojlanish darajasida talab etiladigan zaruriyatlardan biri hisoblanib, o'qituvchi va o'quvchi uchun kompyuter dasturlari va tarmoqlari axborotlarni qabul qilish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarini tez amalga oshirish uchun zamonaviy vosita hisoblanadi. Bugungi ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchisini tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish tizimini yaratish va undan unumli foydalanish dolzarbligicha qolmoqda.

“Ta'lim tizimining asosiy komponenti o'qituvchi bo'lib, u ta'lim jarayonini shakllantirish uchun javobgar shaxs hisoblanadi” [3].

Ta'lim tizimidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik, ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bevosita bog'liqdir. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlar va yuqori samaradorlik mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsiya jarayoni vujudga keladi [3].

Pedagogik ta'lim tizimi zamon talablariga javob beradigan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-innovatsion faoliyat olib borishga tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish tizimining yangi, ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda taraqqiy etib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo'nalishdagi malakali mutaxassislarga bo'lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogik



ta'limning yaxlit tizimida ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizatsiyalash zaruratini belgilaydi. Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik –31 innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalashning umumiy qoidalariga asoslanadi. Ta'limni modernizatsiyalash g'oyasining ishlab chiqilishi va uning zamonaviy ilmiy nashrlar hamda normativ hujjatlarda aks ettirilishi uning mohiyatini, oliy ta'limda amalga oshirishning yo'nalishlari va yo'llarini tushunish zarurligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-sonli Qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan [2].

Pedagogika sohasini yangi sifat bosqichiga ko'tarish sifatli soha mutaxassislarini tayyorlashning mazmuni va uslubini innovatsiyalarga asoslangan holda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun pedagogika sohasida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimining mazmuni, dasturlarining tarkibiy tuzilishini davlat ta'limning mazkur bo'g'ini oldiga qo'ygan talablari asosida takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini takomillashtirish texnologiyasi oliy ta'lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish dolzarb masalalardan biridir.

Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetentsiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq.

Bu haqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026- yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134- sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–289-Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi



oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan.

Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Pedagogik innovatsiya – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar amalga oshirib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.

"Innovatsion yondashuv" tushunchasining pirovard maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iboratdir. Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik amaliyoti professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Zero, bilim, xazina bo'lsa, shubhasiz, uning eshigini ochadigan kalit bu – amaliyot, amaliy ta'limdir. Hozirgi vaqtda pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida amaliy tayyorgarligi yuksak, professional pedagogik kadrlar tayyorlash muammosi eng dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan talabalarining pedagogik amaliyoti – fan- texnika, texnologiya zamonaviy usullar, tajribalarni o'rgangan holda, kasbiy ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish orqali pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Bu haqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] qarorda quyidagilar pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

- tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;

- pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni – maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish;
- pedagogik ta‘lim sohasining ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv – me‘yoriy va ta‘lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;
- sohada ta‘lim, ilm – fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta‘minlash orqali ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish;
- pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish;
- oliy pedagogik ta‘limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborotkommunikatsiya va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;
- pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- pedagogik ta‘lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni – yanada kengaytirish;
- yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.

Adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию РУз». 07.02.2017., № УП-4947.
2. Постановление Президента РУз от 3 июля 2017 года ПП-3832 «О мерах по развитию цифровой экономики в РУз».
3. Постановление Кабинета Министров «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию и внедрению цифровой экономики в Республике Узбекистан от 31 августа 2018 года. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Molia” nashriyoti, 2019. 386 bet.
4. Гаврилов Л. П. Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / 3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. - 477 с.
5. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗ ов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.



6. И.А. Хасаншин, А.А. Кудряшов, Е.В. Кузьмин, А.А. Крюкова. Учебник для ВУЗ ов. –М: Горячая линия. –Телеком, 2019. -280 стр.

7. Шнепс-Шнеппе М.А., Намиот Д.Е. Цифровая экономика: телекоммуникации – решающее звено. –М: Горячая линия. – Телеком, 2018. -150 стр.

8. Поль Виня, Майкл Кейн. Эпоха криптовалют. –М.: 2018.

9. Ходиев Б. Ю. Цифровая экономика в Узбекистане. //Мировая экономика, 2017, №12

10. Аюпов Р.Х., Балтабаева Г.Р. Ракамли валюталар бозори: инновациялар ва ривожланиш истикболлари. –Т: “Фан ва технология” nashriyoti, 2018, 172 бет.

11. Балтабаева Г.Р. va boshqalar. Кичик бизнес ва тадбиркорликда инновацион ривожланиш йуналишлари. –Т: “Фан ва технология” nashriyoti, 2018, 232 бет.

12. Методика обучения особенности занятий легкой атлетикой с детьми, подростками, юношами Раджапов У.Р. Хакимджанова К. Б.

14. “Особенности формирование физической культуры дошкольников” Усмонбой Раджапов, Захид Элмуратов. 2024/3/9

15. “Umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi 1- 2-sinf oʻquvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatli oʻyinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati” U.R. Radjapov. FarDU. Ilmiy xabarlar – научный вестник.ФерГУ. 2024/2

16. “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida kun tartibida oʻtkaziladigan sogʻlomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va oʻtkazish metodikasi” 2023/10. Namangan davlat universiteti axborotnomasi.

17. “Maktabgacha taʼlim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli oʻyinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish uslublari” K.B.Xakimdjanova. U.R.Radjapov. FarDU. Ilmiy Xabarlar – научный вестник.ФерГУ. 2024/2

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada har qanday murakkab zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, raqamli tendensiyalar, avvalo oʻqituvchi tomonidan oʻzlashtirilib, soʻngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga talabalar ongiga va tafakkuriga yetkazish yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье любые сложные современные информационно-коммуникационные технологии, интеграции, универсальные инновации в области науки, цифровые тенденции сначала осваиваются учителем, а затем передаются в сознание и мышление учащихся в обмен на его знания, уровень, способности, выделены.

SUMMARY

In this article, any complex modern information and communication technologies, integrations, universal innovations in the field of science, digital trends, firstly mastered by the teacher, and then transferred to the mind and thinking of students in exchange for his knowledge, level, ability, are highlighted.